
Odina JAMOLDINOVA,
*pedagogika fanlari doktori, professor, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining ma'naviy-
ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya
etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi, Toshkent, O'zbekiston*

TA'LIM TIZIMIDA GENDER YONDASHUV TATBIQ ETISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI

Ta'lim tizimi jamiyatda gender tenglikni joriy etishdagi o'zgarishlarning tashabbuskori ekanligi ta'kidlanadi. Bu esa o'z navbatida, ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish va va boshqarishning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqilishini talab etadi. Shu bois, mazkur maqolada oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etishning o'ziga xos jihatlari, oliy ta'lim olishida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratilishi masalalari ilmiy nuqtai nazardan talqin etilgan.

Kalit so'zlar: gender tenglik, gender yondashuv, huquq, imkoniyat, kafolat, xotin-qizlar, erkaklar, oliy ta'lim, maslahat kengashi, samarali mexanizm.

Подчеркивается, что система образования является инициатором изменений по внедрению гендерного равенства в общество. Это, в свою очередь, требует разработки теоретико-методологической базы реализации и управления гендерным подходом в системе образования. Поэтому в данной статье рассматривается специфика реализации гендерного подхода в высшем образовании, создание равных прав и возможностей для женщин и мужчин в высшем образовании с научной точки зрения.

Ключевые слова: гендерное равенство, гендерный подход, закон, возможность, гарантия, женщины, мужчины, высшее образование, консультативный совет, действенный механизм.

It is emphasized that the education system is the initiator of changes in the implementation of gender equality in society. This, in turn, requires the development of a theoretical and methodological basis for the implementation and management of a gender approach in the education system. Therefore, this article discusses the specifics of the implementation of a gender approach in higher education, the creation of equal rights and opportunities for women and men in higher education from a scientific point of view.

Key words: gender equality, gender approach, law, opportunity, guarantee, women, men, higher education, advisory council, effective mechanism.

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tizimida gender masalalari, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash, qobiliyatlarini erkin amalga oshirishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq normativ-huquqiy baza yanada takomillashtirildi. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi (2019), "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi(2019) O'zbekiston Respublikasining qonunlari qabul qilindi.

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini

ta'minlashning asosiy printsiplari ishlab chiqildi. Davlat tomonidan xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etish, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanishiga erishish mamlakatimizda gender strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi[1].

Ta'lim tizimi jamiyatni yaxlit tarzda aks ettiruvchi ko'zgu bo'lib, unga o'z ta'sirini o'tkazadi va o'z navbatida ta'limda kechayotgan yangilanishlar ham jamiyat taraqqiyotiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Shu bois, ta'lim tizimijamiyatda gender tenglikni joriy etishdagi o'zgarishlarning tashabbuskori bo'lishlari kerak. Bu esa o'z navbatida, oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish va va boshqarishning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqilishini talab etadi. Chunki har bir davlatning barqaror taraqqiyoti hamda rivojlanishi – inson omili, xususan, yosh avlodning ilmiy, ijodiy va ma'naviy salohiyatiga bog'liqdir.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda gender tenglikka erishish nafaqat demokratik qadriyatlardan biri, balki ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Jahon miqyosida o'ttirilgan tajriba shundan dalolat beradiki, aynan erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlar mavjud davlatlarda aholi turmush farovonligi va ijtimoiy-siyosiy faolligi yuqori darajada bo'lib, islohotlar muvaffaqiyati ta'minlanadi.

“Gender” xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati [1].

Xorijiy va MDH mamlakatlari olimlari E.Maer, K.Xiggins, I.Kon, A.Mudrik, L.Popova, I.I.Yukina, YU.S.Tukacheva, L.I.Stolyarchuk va boshqalarning tadqiqotlarida gender va ta'limda gender yondashuv masalalari o'g'il va qiz bolalarga ta'limda bir xil imkoniyatlarni berish va tenglikni ta'minlash; o'quv jarayonida o'g'il va qiz bolalarning psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning o'z imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishi uchun xizmat qiladigan o'qitishning shakl va metodlari, vositalarini tanlash; ta'lim muassasasida gender bag'rikenglikni, gender tenghuquqlilikni ta'minlash, shuningdek ta'lim mazmunining gender tahlilini amalga oshirish, o'qituvchilarning gender savodxonligini oshirish kabi yo'nalishlar keng o'rganilgan[7,8].

O'zbekiston Respublikasida gender yondashuv asosida uzluksiz ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, kasbiy ta'limda gender masalalari kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar (O.Musurmonova, N.Egamberdieva, R.Samarov, U.Temirova va boshqalar) amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlarda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari geder yondashuv orqali tahlil etilgan, pedagogik ta'limda gender yondashuv masalalari o'rganilgan. Olimlarning fikricha, o'qituvchilarni tayyorlashda gender jihatlarini ishlab chiqish jarayoni va amalga oshirish tamoyillari ularni pirovard natijaga olib keluvchi asosiy bosqich hisoblanadi. Gender jihatlarini tushungan o'qituvchi gender muammolaridan xabardorligi va his qila olishi asnosida yosh avlodni ongli fikrlash va harakat qilishiga imkon yarata oladi. Shunday ekan, ta'limda gender tenglikni amalga oshirish harakati o'qituvchidan boshlanib, uning kasbga tayyorlash bosqichidan, to uzluksiz malaka oshirish bosqichigacha, butun faoliyatini qamrab olishi kerak. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy bilim va ko'nikmalardan tashqari, ularga muhim hayotiy ko'nikmalarni, shu jumladan tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, muammolarni hal qilish, moslashuvchanlik, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek mustaqil va hamkorlikda

ishlashga o'rgatish gender kompetentlikni shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Buning uchun oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish va uni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Gender yondashuv – gender tengsizligining mavjudligini va ularning sabablari, oqibatlarini tushunish hamda ularning yechimini ta'minlash to'g'risidagi yondashuv. Gender yondashuv erkak va ayollar o'rtasidagi gender munosabatlaridagi o'zgarish bo'lib, erkaklar va ayollar uchun foydali ta'sir ko'rsatadigan vakolatlar va majburiyatlarni yanada teng taqsimlashga yordam beradi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv esa – ta'lim strategiyasini ishlab chiqishda, kasbiy tayyorgarlik mazmuni va texnologiyalarini belgilashda, o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda, ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda gender masalalarini bevosita jalb qilishni o'z ichiga oladi [7]. Fikrimizcha, oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlari, ya'ni tarbiyaviy, ta'limiy (ta'lim mazmuni) va metodik (o'qitish metodlari, o'quv jarayonini tashkil etish, pedagogik hamkorlik) jihatlari, shuningdek, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini, ta'lim tizimini boshqarishni gender masalalariga ta'sirchanligini oshirishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunining

13-moddasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha tadbirkorlik sub'ektlarining, shuningdek fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarning va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillari ishtirokida maslahat kengashlarini tuzish mumkinligi belgilangan. Mazkur normaga asosan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida, shuningdek barcha oliy ta'lim muassasalarida tuzilgan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashi - gender tenglikni ta'minlashning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashi (keyingi o'rinlarda – Maslahat kengashi) – gender tenglikni ta'minlash hamda jinsi bo'yicha bevosita yoki bilvosita kamsitilishini bartaraf etish maqsadida tuzilgan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha kollegial maslahat organi. Maslahat kengashining faoliyati qonuniylik, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jinsi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymasligi, ochiqlik va shaffoflik tamoyilari asosida olib boriladi[2].

Maslahat kengashi O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining ustuvor yo'nalishlari va tavsiyalaridan kelib chiqib quyidagi asosiy vazifalarni o'z oldiga qo'yadi:

- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash borasidagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarini amalga oshirish yuzasidan o'z takliflarini beradi;

- yuridik xizmat tomonidan qabul qilinayotgan normativ-huquqiy va boshqa ichki me'yoriy hujjatlarni gender tenglikni ta'minlash maqsadida huquqiy (gender-huquqiy) ekspertizadan o'tkazishda bevosita ishtirok etadi;

- tizimda mehnat qonunchiligi va boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda ayollarga berilgan imtiyozlarning yaratilganlik holatini o'rganadi va uning natijalari bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

- tizimda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlaydi;

- ishga kirish maqsadida murojaat qilgan nomzodlar bilan o'tkaziladigan suhbat

yoki boshqa jarayonlarda, ish beruvchi tomonidan vazifa va lavozimlarga tayinlashda hamda kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikni ta'minlaydi;

- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha o'qitishni tashkil etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

- tizimda faoliyat olib borayotganlarning gender tenglikni ta'minlash madaniyatini shakllantirish maqsadida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib boradi;

- faoliyat jarayonini monitoring qiladi, baholaydi va aniqlangan kamchiliklarni bar-taraf qilish yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqadi va rahbariyatga taqdim etadi.


Xotin-qizlarning oliy ta'lim olishi uchun teng sharoitlarni yaratilishi, oliy ta'lim tizimida gender tenglikni ta'minlanishi masalalarni tahlil qilib borish Maslahat kengashining oldidagi muhim vazifalardan biri sanaladi.

2017-2021 O'zbekiston Respublikasini yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Haraktlar strategiyasining [4] ijtimoiy sohani tubdan isloh qilish borasidagi ustuvor yo'nalishi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "yoshlarning oliy ta'lim olishi uchun teng imkoniyatlarni yaratish" [3] vazifasi belgilangan. Shu maqsadda amalga oshirilayotgan islohotlardan yoshlarning xabardorligi darajasini aniqlash hamda xotin-qizlarning oliy ta'lim olishi uchun yaratilgan sharoitlar va mavjud to'siqlarni o'rganish maqsadida o'tkazilgan so'rovnomada 5 ta oliy ta'lim muassasasidan 7 823 nafar respondent ishtirok etdi. Tadqiqotda qatnashgan ishtirokchilarning 77,8 foizi ayol, 22,2 foiz erkak talabalaridir.

Sotsiologik tadqiqotda 60,8 foiz 18-21 yoshli, 33 foiz 21-25 yoshli va 6,2 foiz 25-30 yoshli talabalar ishtiroki ta'minlandi. (1-diagramma).

1-Diagramma

Respondentlarning yoshi bo'yicha ko'rsatkichlar



So'rovda qatnashganlarning 19 foizi o'rta ma'lumotli, 19,8 foizi o'rta-maxsus hamda 61,2 foizi oliy ma'lumotli yoshlardir.

So'rovnoma natijalarini tahlil etganimizda, mamlakatimiz yoshlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida barcha fuqarolar uchun ta'lim olish huquqi kafolatlanganligi, ta'lim tizimining barcha darajalariga kirishda qizlar va ayollar uchun qonunchilik tomonidan to'siqlar yo'qligi haqida xabardorligi aniqlandi. Shuningdek, so'rovnoma o'tkazilgan 5 ta muassasada tahsil olayotgan talaba qizlar uchun barcha sharoitlar yaratilganligi 6 428 nafar (82,2%) respondent tomonidanta'kidlangan.

Ta'lim-tarbiya jarayonida va kundalik hayotiy masalalarda turli muammolarga duch kelayotgan talaba qizlarga muammolarini hal etishda oliy ta'lim muassasa tomonidan ko'mak berilishi yo'lga qo'yilgan bo'lib, respondentlarning asosiy qismi 5 343 nafari (68,3 foiz) oliy ta'lim muassasalarining maslahat kengashi tomonidan ijtimoiy, psixologik, huquqiy, moddiy va ma'naviy jihatdan ko'mak berilishini, talabalarni qo'llab-quvaatlashning samarali mexanizmlari ishlab chiqilganligini, 1 751 nafari (22,4 foiz) ko'mak berilishini kuzatmaganligi yoki ko'mak so'rab murojaat qilmaganligini ta'kidlagan bo'lsa, 650 nafari (8,3 foiz) javob berishi qiyinligi haqida o'z fikrini bildirgan.

Ta'lim muassasalarida qizlarning turli muammolarini bartaraf etish bo'yicha tizim yo'lga qo'yilganligi yuzasidan quyidagicha fikrlar bildirilgan: 4 863 nafar (62,2 foiz) talabalar xotin-qizlar bilan ishlash tizimi mavjud, oliy ta'lim muassasasida faol ish olib boradi, 1 566 nafar (20 foiz) talabalar xotin-qizlar bilan ishlash tizimi mavjud, ammo faoliyati yetarli darajada tashkil etilmagan hamda 902 nafar (11,5 foiz) talabalar xotin-qizlar bilan ishlash tizimi faoliyatini takomillashtirish kerakligini belgilangan. Talabalarning 460 nafari (6,3 foizi) ushbu savolga javob berishi qiyinligini bildirgan.


Tadqiqotda ishtirok etgan aksariyat talabalar oliy ta'lim muassasalarida o'qish xarajatlarining yuqoriligi sababli, aksariyat oilalarda qiz farzandlarga qaraganda o'g'il farzandlarni oliy ta'limga ega bo'lishiga ko'proq e'tibor berilishi bilan bog'liq qarashlariga rad javobini berganligi ta'lim sohasida qizlarga yaratilayotgan sharoitlar, qaratilayotgan e'tibor va amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi hisoblanadi [5].

Butun dunyoda hali-hanuz gender notenglikning mavjudligi erkaklarning xotin-qizlar ustidan hukmronligini tasdiqlovchi patriarxat tizimning ta'siri bilan izohlanadi. Buning o'zagida esa, insonlar, jamoatchilik ongida asrlar davomida shakllanib kelgan gender stereotiplar yotadi. Shu sababli, tadqiqotda ishtirok etgan yoshlarning 1 067 nafari (13,6 %) o'quvlar jarayoni (mashg'ulotlar)da gender tengsizlik holatlari kuzatilib turishini ta'kidlagan, 4 282 nafari (54,7 %) esa bunday holatni kuzatmaganligini bildirgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, jamiyatda, ayniqsa ta'lim muassasalarida gender tenglik tushunchasini yoshlar ongiga singdirish borasida tizimli ish olib borilishi lozimligini ko'rsatadi.


An'anaviy ijtimoiy-madaniy rollar tufayli oliy ta'limda gender tengsizlik o'quv sohalarida kuzatilmoqda: qizlar sog'liqni saqlash va pedagogika kabi an'anaviy sohalarda, yigitlar esa moliya, transport va aloqa kabi texnik sohalarda jamlangan. Qurilish va muhandislik, bu iqtisodiyotning yuqori haq to'lanadigan tarmoqlarida bandlik bilan bog'liqdir. Shu o'rinda aytish kerakki, pedagogika ayollar sohasi, degan qarashlar natijasida ta'lim muassasalarida erkak o'qituvchilarning soni yillar davomida kamayib ketishiga olib keldi. Faqat so'nggi 4 yil davomida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar bois, 20 mingga yaqin erkak o'qituvchilar umumiy o'rta ta'lim maktablariga qaytishiga erishildi.

So'rovda ishtirok etgan talabalar oliy ta'lim ta'limda ayollarga va erkaklarga xos

ta'lim yo'nalishlari yoki sohalar degan tushunchalar mavjudligi haqidagi o'z fikrlarini bildirgan. Umumiy olganda, ishtirokchilarning 2 842 nafari (36,3 %) bunday qarashlarni kuzatmaganligi, 1 974 nafari (25,2 %) bunday qarashlar mavjudligi, ya'ni xotin-qizlar uchun pedagogika yoki tibbiyot sohasi xosligi, 2 225 nafari (28,4 %) sohalar kesimida mutaxassisliklarni bo'linishi inson huquqlarining buzilishi deb hisoblashini ta'kidlagan (2-Diagramma).



So'rovnoma ishtirokchilari xotin-qizlarning transport, aloqa, moliya va qurilish sohalaridagi ishtirokining ortishi gender tenglik darajasini yaxshilashi haqida ijobiy (3 207 nafari (41 %) fikr bildirib o'tgan. Shuningdek, 2 529 nafari (32 %) yoshlar sohalarini bunga hech qanday aloqasi yo'q degan fikrni ma'qullashgan. Biroq, nafaqat ta'lim sohasi, balki barcha sohalarida gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramasdan, yoshlar orasida (780 nafari (10 %) bu sohalar xotin-qizlar uchun emas degan qarashlar ham mavjud (3-Diagramma).



Bugungi kunda aksariyat ota-onalar qizlarining oliy ta'lim olishigato'sqinlik qilish holati mavjudligi aniqlanganda, ota-onalar qizlarining oliy ta'limda o'qishiga qarshilik qilish holatlari o'rniga qizlarning oliy ma'lumotli qilishga intilish kundan kunga ortib borayotganligini ko'rsatdi. Shuningdek, oliy ta'lim olishda ta'limning kunduzgi shakli bilan bir qatorda kechki va sirtqi ta'lim shakllari mavjudligi xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ta'lim olishini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omil ekanligi e'tirof etilgan. Xotin-qizlarning oliy ta'lim olishda yoshlarning qarashlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ta'lim muassasasining qaerda joylashganligi va ta'lim shaklidan qat'iy nazar oliy ta'lim olishga bo'lgan intilish va ishtiyoq keskin oshganligi kuzatiladi[6].

- O'tkazilgan so'rovnoma natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki;
- ta'limning barcha bosqichlarida gender ta'limini uzluksiz joriy etish konsepsiyasini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minlash;
 - oliy ta'lim muassasasida gender tenglikni ta'minlash masalalarining asosiy yo'nalishlarini aniqlash va ilmiy-tadqiqotlar olib borilishini qo'llab-quvvatlash;
 - oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish va boshqarishning samarali mexanizmlarini aniqlash va amaliyotga joriy etish maqsadida fundamental, innovatsion va amaliy loyihalar tanlovlarida ishtirok etish;
 - gender tengligi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan tadqiqotchilar bankini yaratish va ular bilan yaqindan xamkorlik qilish;
 - O'zbekiston Respublikasida gender tenglik masalalari bo'yicha dolzarb muammolar yechimini topishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishda yetakchi xalqaro oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish;
 - gender tenglik masalalarida ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlashning samarali tizimini tashkil etish;
 - sohalaridagi dolzarb muammolarni aniqlash bo'yicha ta'lim muassasasida faoliyat yuritayotgan ayol professor-o'qituvchilar va talabalar orasidagi ayollar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish va ularni tahlil qilish;
 - so'rovnomalar tahlili natijasida aniqlangan muammolar ustida ishlash maqsadida mutaxassislarni jalb qilish, sohalar kesimida faoliyat olib borish, monitoringini yo'lga qo'yish va natijalarini oliy ta'lim muassasasining ilmiy jurnallarida chop etishga tavsiya qilish;
 - oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish va boshqarishning psixologik aspektlarini tadqiq etish;
 - oliy ta'lim muassasalari huzurida Gender tengligi masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni. –2019 yil 2 sentyabr
2. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni. 2019 yil 2 sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2021 yil 29 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni // o'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017.

5. Namazov B., Egamberdieva N., Mirsolieva M. O'qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv masalalari (Gender mainstreaming in teacher education in Asia-Pacific). O'quv qo'llanma. –T., 2018.

6. Vazirlik, idora va tashkilotlarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashlarini tashkil etish hamda ularning faoliyatini yuritish yuzasidan tavsiyalar.- Toshkent, 2020. 6 b.

7. O.Jamoldinova, M.Mirsolieva, K.Risqulova. Pedagogik ta'limda gender yondashuvi masalalari// Maktabgacha ta'limda davlat va nodavlat sektorni rivojlantirish: yangi shakllari va ta'lim mazmuni mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maieriallari to'plami. – Toshkent, 2020. –B. 99-101.

8. Watson L.W., Jingtong Dou, M.S. Finding a place to belong: china's rural bachelors//Belarus-O'zbek ilmiy-metodik jurnali, 2021, №1. - B. 42-52